



MUHABBATNING TABIAT PANTEONIDAGI TALQINI (JO'RABEK RAMZON IJODI ASOSIDA)

Alimova Mohidil

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Tayanch Doktoranti

mohidilalimova97@mail.com +998944629587

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada shoir Jo'rabek Ramazon she'rlari kompozitsiyasida badiiy detallar, jumladan uning peyzaj, narsa-predmet, interyer kabi turlaridan keng foydalanganiva asar tuzilishining o'ziga xosligini ta'minlagani ilmiy tahlil etiladi. Shoir ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob'ektivligini yuzaga chiqarishda qahramon holati uning ichki ruhiy dunyosi, tasvirning aniq va ishonchliligi, muallifning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda badiiy detallar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, badiiy detal, obraz, tabiat, peyzaj detal, predmet detal, ekspozitsiya, interyer detal, badiiy konstepsiya

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет проведен научный анализ рассказов , Журабек Рамазон в которых широко использованы художественные детали, в том числе такие его виды, как пейзаж, вещь-предмет, интерьер, и , которые обеспечили оригинальность структуры произведения. В выводе на поверхность объективности образа, творческим кредо которого является писатель, состояние героя, его внутренний духовный мир, ясность и достоверность образа, художественная детальность работы приобретают важное значение при выводе на поверхность художественного замысла детали становятся важными. Ключевые слова: композиция, художественная деталь, образ, природа, пейзаж деталь, предметная деталь, экспозиция, интерьер деталь, художественная концепция

ANNOTATSIYA

In this article, the writer Thanks the Jurabek Ramazon story of artistic details, including its landscape, things-objects, interiors, such as the widely used cultivars havei made that provide specific and the gameis scientific analysis. The writer is the occurrence of internal mental image out of his hero status kredosi creative ob'ektivligi the world, and the reliability of the image is clear, the author details in the likelihood of out your artistic artistic goals] which plays an important role.

Keywords: kompozitsiya, artistic details, images, nature, landscape details, item details, exposition, interior details, artistic konstepsiya

She'r – azob-uqubat, mashaqqat, alam, iztirob, ayriliqdir. Ular shunchaki yozilmaydi, kitobxonga taqdim etilmaydi. Adabiyot darsliklarida she'rga shunday ta'rif



berilgan. Poeziya – murakkab va g'oyatda boy san'at. U inson qalbining nozik tuyg'ularini, fikr va hissiyotlar harakatini va ehtiroslar kurashi va rivojini emotsional tarzda ifodalaydi. Poeziyada rang-barang mavzuda qalam tebratadilar.

Ma'lumki, adabiyot va san'atda ijodkor qalbi hal qiluvchi mohiyatga bo'ladi. Har bir shoir o'z qalbidagi yashirin tuyg'ularni o'quvchiga yetkazadi. Qalb doimo jo'shib to'ldiradi. Unga tuyg'ularning rang-barang jilolari mavjlanib turadi. Ushbu to'liqlik mavj shoirlarda o'ta kuchliroq bo'ladi. Agar ana shu tuyg'ularni shoir yuzaga chiqarmasa, dard-tashvishlarni, sevinch-shodliklarini satrlarga chizmasa, unda uning yuragi behol bo'lib qoladi, dardni his eta olmaydi. O'z qalbidagi dard-alam, iztiroblarni kitobxonga sherik bo'lsa, u bilan dardlashsa, shoir haqiqiy dardga to'lgan qalb ijodning chashmasidir. Qalb bilan qalbning qattiq farqi bor. Ijodkor qalbi esa o'tli ehtiroslar bilan yonib turadi, unda siz tuyg'ularning jiddiy dovulini ko'rasiz. San'atkor qalb go'zalligi jihatidan emas, tashqi qiyofasi, yuzi, ko'zi, o'zi go'zal bo'lishi kerak. Ijodkorning ruhiy dunyosi, hissiyot olami bilan yuqorida ta'kidlaganimiz tashqi dunyosi ichki qalbiga mos tushishi shart. L.Tolstoyning mashhur bir gapi bor: "Birovga biror narsani o'rgatish uchun (san'atkor nazarda tutilmoqda) o'zing unga arzigulik bo'lishing kerak". Surxon vohasi ijodkorlarga boy. Voha tabiati, dashtu qirlari, bepoyonsiz tog'lari odamni kuylatadi. Siz bu yerda chanqovuz nidosidan o'ylarga cho'masiz, do'mbira sadolari moziyning qaynoq bag'riga yetaklaydi.

Shoir va yozuvchilarga boy Boysun tumanning yana biri marhamatli shoiri Jo'rabek Ramazondir. Biz odatda sevgi haqidagi she'rlarda ko'proq nola, hasrat, yig'loqi gaplarga ko'nikib bo'lgan edik. Lekin "Mustaqillik" she'ri bu mavzudagi she'rlarning tag-tubini o'zlashtirib yubordi. Endi esa deyarli fikrlar oqimi quyuq, falsafiy ifodalar o'rin ola boshladi. Jo'rabek Ramazon aksariyat she'rlari nurga chayillashadi, teran tuyg'ular bilan ma'no yaxlitligi yaqqol namoyon bo'ladi. Unda sevgi-muhabbat, yoniq til bor, kuylaydi, fikrlaydi, mushohada yuritadi, bahsga chorlaydi.

She'r – hadsiz tuyg'ularga boy, o'ziga xos badiiy olam. Shoir doimo og'riqli so'roqlariga javob izlaydi, ba'zan topadi, ba'zan ramziy ishoralarga berilib ketadi. Baribir ramziy ishora tagida ba'zan aytilishi qiyin so'roqlar turadi. "Sevgi" she'rida so'zning hidini, rangini, jilvasini o'ziga xos his etadi va shoirning ehtirosli ohangi sezilib turadi.

Sevgi – oyog'imga sig'magan kovush

Hayot o'zi menga noloyiq yo'ngan.

Yurak ozodlikni orzu qilgan qush,

Qismati qanotin qayirib qo'ygan.

Yashash qiyin ekan doim piyoda

Tovonlarim vujud yukidan toldi

Har baloni ko'rib bo'ldim dunyoda

Faqat oyoqyalang yurishim qoldi.



Shu o'rinda shoir topgan ixcham, chiroyli ifodalarga yana diqqatingizni tortmoqchimiz. Sevgi – oyog'imga sig'magan kovush, yurak ozodlikni orzu qilgan qush, yashash qiyin ekan doim piyoda, tovonlarim vujud yukidan toldi, har baloni ko'rib bo'ldim dunyoda, faqat oyoqyalang yurishim qoldi.

Dard bilan yashaydi har yurak" deb boshlanuvchi she'rida shoirning o'ziga xos falsafasi namoyon bo'ladi. Yana o'ziga xos fikriy izlanish va fikr ko'lamining kengligi, ramziy ifoda ustunligi ko'zga tashlanadi. Shoir sobiq sovet davrida aytilgan an'anaviy fikrbozlikdan voz kechadi, chiroyli tashbeh, go'zal so'zlar samimiyati yangraydi.

Dard bilan yashaydi har yurak,
G'am bilan hech ko'ngil to'lmaydi.
Ehtimol bozori bo'lar, lek
Sevgining mozori bo'lmaydi.

Aslida, dunyo bozor. Bozorda hamma narsa sotiladi. Sevgining mozori yakson qilingan yurakdir. Shoirning ramziy ishoradagi hislarni bekafan ko'mish, sevgi bozori haqidagi o'ylari keyingi satrlarda namoyon bo'ladi: fikrlar esa badiiyatning yorqin suv sug'orilgan.

"Men sham edim, atrofimda aylanishib" she'rida hissiyot va fikrni uyg'unlashishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu holat esa mahoratning belgilaridan biridir. Topqirlikka e'tibor bering, ko'nglingiz yayrab ketadi, she'rning haroratini, hovurini sezasiz. Men sham edim, aylanishib arzlarini aytishardi parvonalar, ko'zi olov, qalbi muzga ishqim tushib, achinajak bo'ldi hatto begonalar, mehrim tushdi mehri yo'qning tovoniga, xo'rlandi his osilgancha domoniga, oshiq bo'lib osholmadim ostonalar, yetolmadim suluvlarning sarasiga, botolmadim ko'zlarning qorasiga, oraladim oshiqlarning orasiga, mastligimni payqamadi mastonalar, oxir u ham menga ko'ngil qo'ydi, ko'zi bilan ko'kragimni o'yar bo'ldi, o'zgalarning ko'zi kuyar bo'ldi, hijronimga ham topildi so'ng bahonalar, do'stim-ku yo'q o'rtog'imdan ayirdilar, har kuni uni ko'rmog'imdan ayirdilar.

Tomirimga hijron ketdi o'ralib,
G'am-motam kunlari yagona do'stim.
Boshim tosh, yuragim o'tdan yaralib,
Atirgul tikanin ichida o'sdim.
Tug'ildim sen uchun, sen uchun o'lgum,
Bo'ysunishdan kechib yurdim ko'z yoshga
Men butun dunyoni zabt etib bo'ldim
Ko'nglimdan boshqa.
Quyidagi misralar esa sobiq tuzumning badiiy atamasidir.
Choynak piyolaga egilar
Egiladi qadahga shisha.
Yaproqlar ham yerga to'kilar
Na xijolat, na-da andisha.



Egilmagan boshlarni kesib,
Ko'p qilichlar boshlarni kesib,
Mening bobom yetmish ikki yil
Egilib yashadi... ketmonga.

Bu sakkiz misrali she'rda o'zining ramziy ma'nosi bor. Shoirilar voqealar bayonini emas, asliy fikrning yakunini beradi.

"Ozgina" she'ridagi chiroyli topilmalar zukko kitobxonga yetib boradi: bir safar ozgina jilmayib yuring, nechun lablaringiz bunchalar ham jim, ozgina ishoning muhabbatimga, nahot tuyg'ularning bari o'lgan, nahotki aylangan sevgi yetimga, yuragim ozgina og'rir, og'ritib qo'ygidek butun olam.

Yorning tavsifi, uning go'zalligi, oshiqligi hamda do'stidan ayrilgani haqida oshiqning ko'p she'rlari bitilgan. Lekin bu she'r zavqi, undagi ifoda usuli batamom o'zgacha taassurot qoldiradi. Go'yoki, oshiq qalbi bilan so'zlashgandek bo'lasiz. Shoirning quyidagi sakkiz misrali she'rda rumiyona hikmat jaranglaydi. Xalqimizda besh kunlik dunyo degan ibora bor. Bu bekorga aytilmagan, uning tagida falsafiy hikmat yotadi. Shoirning "Besh kun" she'rda dunyo haqidagi uning badiiy tasavvuri, qarashlari hukmronlik qiladi. Bu qarash tagida fikr-so'zning o'ziga xos mohiyati, jilosi turadi:

Bor hayotim kichkina bir she'r,
Ma'nisini ilg'amoq oson.
Besh kun meni avaylaydi yer,
So'ng ikki kun qulaydi osmon.

Shoirning zamin, osmon haqidagi fikrlari quyuqlashadi. Ular haqida adibning poetik xulosalari bor:

Osmon uncha emasdir yiroq,
Uncha uzoq emas to'rt tomon.
Besh kun mendan qo'rqadi firoq,
So'ng ikki kun bo'lar hukmron.
Zamin sathi go'yo bir tanga,
Dunyo buncha tor, buncha oriq!
Besh kun meni sevadi hamma,
So'ng ikki kun unutar borliq.

Shoirning mulohazali ancha o'ychan, fikrlar olamiga yetaklaydi, sathi go'yo bir tanga zaminni, tor va oriq dunyoni omon saqlashga da'vatdir. Jo'rabek Ramazon ana shunday qalbi va she'rlari go'zal ijodkodkordir. Uning ijodida sevgi va tabiat tushunchalari hamohang tarzda yoritiladi. Ichki va tashqi dunyo uzviy bog'liqligi yaqqol namoyob bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. "Adabiyotshunoslikka kirish". –Toshkent:Meros, 2004. –B 76-77.
2. Sharafiddinov O. "Ijodni anglash baxt". –T. "Sharq". 2004.
3. Qarshiboy M. "Taloto'pdan uyg'unlik sari". –T. "Ma'naviyat". 1998.
4. Qo'shjonov M., Meliyev S., Abdulla Oripov. –T. "Ma'naviyat". 2000.
5. Jo'rabek Ramazon. "Men shu yomon qizni yaxshi ko'raman". -T. "Yangi asr avlodi". 2020.